

DARSLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA MATNLAR BILAN ISHLASH VA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Ahmedova Pokiza Rustamovna

Nukus davlat pedagogika inστιiuti Turkiy tillar fakulteti talabasi

Annatsiya: Bugungi kunda dars jarayonlarini tashkil qilishda, o'yinli metodlardan foydalanilib kelinmoqda darsning samaradorligi erishilmoqda. O'yinli metodlar o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Kalit so'zlar: O'quvchi faoliyati, metodlar, intellektual harakat, amaliy yechim.

O'quvchilar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va ularni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. O'yinlarning asosiy turlari: intellektual va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi.

Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motiv-larini, ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik, va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. O'yin turlarini tanlashda, quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi: shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim¹.

Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar metodi", "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6*6*6", "Bahs munozara", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi o'yin texnologiyalar qo'llanmoqda.

O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Intellektual ijodiy o'yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinda shaxsning kommunikativ sifatlashni rivojlantirish, intellektual savodxonligi, ziyorligi, qarorlar qabul qilishda ta'lim zukkolikini rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo'lishi sifatidagi salohiyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni rag'batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo'yiladi. Televedion o'yinlarda namoyish etiladigan "O'yla, izla, top!", "Oltin toj" kabilar shular jumlasidandir². O'quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda shunday o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Albatta, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish, diqqatini bir joyga jamlash, xotirasini yanada mustahkam qilish, mustaqil fikrlay olish jarayonini tashkil qilishda turli xil o'yinlar, metodlar va usullarning ahamiyati e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yinlar mazmunini o'rganib chiqamiz:

¹ Nurmonov A, Ikramov I, Boynazarov F. "Yangi pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent, 2007-yil.

² To'xliyev B, Shamsiyeva M. Ziyotova G. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2010-yil.

O'yinlar mazmuniga, qilingan tasnifiga ko'ra asoslanib joylashtiriladi. Tinch o'yinlarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

“O'zim tekshiraman”, “Hikoya”, “U kim? Bu nima?”, “Tapog'on”, “Noto'g'ri jumla”, “Harflarni top”, “Davom ettir”, “Rebus”, “Sirli so'z” kabi o'yinlar mavjud. Masalan:

“Hikoya” o'yini tushuntiradigan bo'lsak, bu o'yinda o'qituvchi doskaga bir necha so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar bo'yicha hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilar lug'at boyligi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarning vaqti vaqti bilan rag'batlantirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarida, to'garaklarda qo'llash joizdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi. Hikoya mazmunan o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. O'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga olib boriladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

O'quvchilar bilim olishar ekan, o'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqoza etadi. Shunday ekan o'quvchilarning ijodkorli, ijodiy faoliyatini rivojlantirish lozimligi kun tartibdagi muammo bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, o'quvchilarga ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiboriga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni no'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchilarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda, yuqorida aytib o'tilganidek ertak, hikoya, maqol, masal, she'r kabi asarlarni o'rgatishda, she'rni yodlatishdan oldin o'qituvchi mag'zini chaqib berishi, o'quvchilarda ushbu aytilayotgan ma'lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishlari va hokozalar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan o'quvchilarning ijodkorli, ijodiy faoliyatini rivojlantirish lozimligi kun tartibdagi muammo bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, o'quvchilariga ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiboriga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni no'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchilarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda, yuqorida aytib o'tilganidek ertak, hikoya, maqol, masal, she'r kabi asarlarni o'rgatishda, she'rni yodlatishdan oldin o'qituvchi mag'zini chaqib berishi, o'quvchilarda ushbu aytilayotgan ma'lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishlari o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alavutdinova N. “Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi”. -T.: 2008-yil.
2. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, 2011-yil.
3. Husanboyeva Q. “Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari” T.: 2003.
4. Mahmudov N va boshqalar. “Ona tili” 6-sinflar uchun darslik. Toshkent “Tasvir” nashriyoti. 2018-yil.
5. Mahmudov N. “Ona tili” 5-sinflar uchun darslik. Toshkent, “Ma’naviyat”,
6. 2018 -yil.
7. Mirqosimova M. “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari”. T., “Fan”, 2006-yil.
8. Nematov H. Bozorov O., “Til va nutq”, T., “O‘qituvchi” 1999.
9. Nurmonov A, Ikramov I, Boynazarov F. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent, 2007- yil.
- 10.